

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

OSTONOV MUHRIDDIN BAHRIDDIN O‘G‘LI

SUG‘URTA KOMPANIYALARI INVESTITSION FAOLIYATI
SAMARADORLIGINI BAHOLASH

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2025-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Ostonov Muhridin Bahriddin o'g'li

Sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyati samaradorligini baholash3

Остонов Мухриддин Бахриддин угли

Оценка эффективности инвестиционной деятельности страховых
компаний33

Ostonov Muhridin Bahriddin ugli

Assessing the effectiveness of investment activities of insurance companies65

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works69

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

OSTONOV MUHRIDDIN BAHRIDDIN O‘G‘LI

SUG‘URTA KOMPANIYALARI INVESTITSION FAOLIYATI
SAMARADORLIGINI BAHOLASH

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2025-yil

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PHD/Iqt1294 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida www.tsue.uz va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Zoirov Laziz Subxanovich iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	Jumayev Nodir Xosiyatovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Elmirzayev Samariddin Eshquvatovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent shahri filiali

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ⁰⁰huzuridagi DSc.03/30.12.2019.I.17.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "24" 11 kuni soat 14 da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, A.Temur ko'chasi, 60A uy. Tel.: (99871)234-53-34; faks: (99871) 234-46-26; e-mail: ilmiykengash@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1807 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 60A. Tel.: (99871) 234-53-34; faks: (99871) 234-46-26; e-mail: admin@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "24" 10 kuni tarqatildi.
(2025-yil "24" 10 daqi 39 raqamli reyestr bayonnomasi).



T.Z. Teshabayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

J.X. Ataniyazov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

I.N. Qo'ziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining barqarorligi va izchil taraqqiy etishini ta'minlashda sug'urta kompaniyalarining roli sezilarli darajada oshmoqda. Sug'urtalovchilar o'nlab trillion dollarni tashkil etuvchi aktivlarini dunyo iqtisodiyotining turli sohalariga investitsiya qilish orqali global iqtisodiy o'sishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Xususan, "2024-yilda Yevropa sug'urtalovchilarining investitsiya portfeli 15624,3 mlrd yevroni tashkil etgan bo'lib, 47,2 foizi davlat va korporativ obligatsiyalarga joylashtirilgan"¹. Shuningdek, 2024-yilda AQShning hayotni va sog'liqni sug'urtalash bo'yicha kompaniyalarining investitsiya faoliyatidan olgan daromadlari 215 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan². Bu o'z navbatida, sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati samaradorligini yanada oshirish, uning jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga ta'sirini kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etishini namoyon etadi. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash ularning kreditorlar hamda sug'urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishning muqobil variantlarini izlab topish, sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatini diversifikatsiyalash orqali moliyaviy barqarorligini ta'minlashga doir strategiyalarni qayta ko'rib chiqish va takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Jahonda sug'urta bozorini rivojlantirish asnosida sug'urtalovchilarning investitsion faoliyati samaradorligini oshirish hamda moliyaviy barqarorligini ta'minlash borasidagi ilmiy izlanishlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini baholash va ta'minlashda tashqi hamda ichki omillarning tasnifiy xususiyatlarini belgilash, sug'urta bozorida zamonaviy moliyaviy instrumentlarni joriy etish, sug'urta xizmatlarini diversifikatsiyalash, moliyaviy barqarorlikni monitoring qilish mexanizmini ishlab chiqish, sug'urtalovchilarning kapitallashuvi jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadigan sabablarni o'rganish va ularning ichki investitsiya resurslari bozoridagi rolini oshirish, sug'urta kompaniyalari faoliyati samaradorligi va moliyaviy barqarorligini baholashni tashkil etish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Lekin, mazkur tadqiqotlarda sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatini nazorat qilish va tartibga solishda davlatning rolini baholash bo'yicha yangicha yondashuvlar asosida ochib berilmagan.

O'zbekistonda iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda sug'urta kompaniyalarining ahamiyatini yanada oshirish borasida muhim ustuvor vazifalar ishlab chiqilgan. Sug'urta bozorini tubdan isloh qilish, xalqaro standartlar va normalarni joriy etish, tartibga solish va prudensial nazoratning samarali mexanizmlarini qo'llash, yangi innovatsion sug'urta mahsulotlarini joriy etish orqali ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari ko'lamini kengaytirish, sohada raqamli texnologiyalardan keng foydalanish va elektron sug'urta xizmatlarini rivojlantirishga katta e'tibor

¹ European Insurance in Figures. 2024 data. https://www.eiopa.europa.eu/tools-and-data/eurobarometer-2024-consumer-trends-insurance-and-pension-services_en

² Annual Report on the Insurance Industry (September 2024). Federal Insurance Office, U.S. Department of the Treasury Completed pursuant to Title V of the Dodd-Frank Wall Street Reform and Consumer Protection Act. September 2024.

qaratilmoqda. Biroq hozirgi kunda milliy sug'urta bozorining ijobiy imijini shakllantirish va yuqori darajada ushlab turish hamda investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, shu jumladan, milliy sug'urta bozorini xalqaro va xorijiy sug'urta bozorlari bilan integratsiyalashuvini oshirish, sug'urta tashkilotlarining investitsion faoliyatini takomillashtirish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmaganligi ushbu sohada keng qamrovli tadqiqot ishlarini olib borishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "“O'zbekiston – 2030” Strategiyasi to'g'risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”, 2018-yil 1-avgustdagi PF-5495-son “O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonlari, 2024-yil 1-martdagi PQ-108-son “Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida”, 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-sonli “O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”, 2021-yil 23-oktyabrdagi PQ-5265-son “Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sug'urta kompaniyalari faoliyatining nazariy-metodologik asoslari va investitsion faoliyatini takomillashtirishning ba'zi masalalari mamlakatimiz va qator xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan. Jumladan, xorijiy olimlardan K.Pfayffer, D.Bland, G.Chernova, A.Artamonov, Y.Axvlediani, A.Fedorova, I.Balabanov, A.Balabanov, B.Rayzberg, L.Lofovskiy, Y.Starodubseva, Y.Razumovskaya, V.Fomenkolarning ilmiy izlanishlarida sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati samaradorligini oshirish yo'nalishlari qisman tadqiq etilgan³.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar R.Azimov, T.Karimov, Sh.Imomov, X.Shennayev, Q.Qo'ldoshev, N.Qo'ziyeva, M.Xodjayeva, M.Askarova, T.Baymurotov, A.Nurullayev, S.Umarov, I.Abduraxmonov, X.Boyev,

³ Кристоф Пфайффер. Введение в перестрахование. Учебник. Кельнское перестраховочное общество, представительство в Москве, – М.: «Анkil», 2000. – 155 с., Дэвид Бланд. Страхование: принципы и практика. Учебник. – М.: «Финансы и статистика», 1998. – 192 с., Чернова Г.В. Страхование: экономика, организация, управление. Учебник. – М.: Экономика, 2010. – 751 с., Артамонов А.П. Практика непропорционального перестрахования. Учебное пособие. – М.: Издательский дом. «Страховое ревю», 2000. – 172 с., Ахвледiani Ю.Т. Страхование. Учебник. – М.: ЮНИТИ, 2010. – 415 с., Федорова Т.А. Страхование. Учебник. – М.: «Магистр», 2009. – 1006 с., Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Страхование. Учебник. – СПб.: «Питер», 2002. – 256 с., Райзберг Б.А., Лозовский Б.А., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. – М. «Инфра-М», 2006. – 495 с., Разумовская Е.А., Фоменко В.В. Страховое дело. Учебное пособие. – Е.: Гум.универс. – 2016. – 256 с.

O.Yuldashev, I.Kenjayevarlar sug'urta kompaniyalari faoliyatini samarali tashkil etish va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga doir ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan⁴.

Yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida sug'urta faoliyatini rivojlantirishning ilmiy uslubiy muammolari, alohida sug'urta turlarini rivojlantirish, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini samarali joylashtirish, alohida tarmoq sug'urta tashkilotlarining faoliyat mexanizmini takomillashtirishga doir tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyati samaradorligini ta'minlash amaliyotini takomillashtirish mavzusi alohida kompleks tadqiq etilmagan. Bu holat esa, tanlangan mavzuning dolzarbligini namoyon etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusidagi ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyati samaradorligini baholashga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining iqtisodiy mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish;

sug'urta kompaniyalarining investitsion salohiyati va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish;

rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatini amalga oshirishning zamonaviy holati va tendensiyalarini tahlil qilish;

⁴ Азимов Р.С. Иктисодиётни модернизациялаш шароитида рискларни суғурталаш методологиясини такомиллаштириш. И.ф.д. (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т.: ТМИ, 2022. Шеннаев Х.М. Ўзбекистон Республикасида суғурта фаолиятини ривожлантириш йўналишлари. И.ф.д. (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т.: ТМИ, 2021.; Қўлдошев Қ.М. Ўзбекистонда ўзаро суғурталашнинг методологик асосларини такомиллаштириш. И.ф.д. (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати, Т.: ТМИ, 2020. 36 б.; Қўзиева Н.Р. Хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналар фаолиятини рағбатлантиришнинг молия-кредит механизмини такомиллаштириш йўналишлари. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати, Т.: БМА, 2008. 36 б.; Ходжаева М.Х. Суғурта фаолияти бухгалтерия ҳисоби ва аудитининг ҳозирги аҳволи ва уни такомиллаштириш йўллари. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати, -Т.: БМА-2001 13 б.; Аскарова М.Т. Развитие системы страхования в обеспечении экономического роста в условиях рыночных преобразований в Республики Узбекистан. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н., -Т.: Институт экономики АН РУз-2003. -15 ст.; Баймуратов Т.М. Ўзбекистонда суғурта фаолияти ва уни солиққа торташ механизмини такомиллаштириш. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. -Т.: Давлат ва жамият қурилиши академияси-2004, 16 б.; Нуруллаев А.С. Ўзбекистонда фермер ва деҳқон хўжаликларини суғурталаш масалалари. и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. -Т.:БМА, 2007.-23 б.; Умаров С.Х. Страховой рынок Узбекистана: основные проблемы и тенденции развития. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н.-М.:2013. 26 стр.; Абдурахмонов И.Х. Ўзбекистон Республикасида жавобгарликни суғурталашнинг амалиётини такомиллаштириш. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. -Т.: БМА-2010 20 б.; Боев И.Х. Суғурта иши. Ўқув қўлланма.-Тошкент, 2007; Юлдашев О., Закирходжаева Ш. Ҳаёт суғуртаси. Т.: иктисод-молия, 2019 й; Кенжаев И.Ғ. Суғурта ташкилотларининг молиявий ресурсларини жойлаштириш самарадорлигини ошириш йўллари. Иктисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. -Т.: ТМИ, 2019. 26 б.

sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatini amalga oshirishning zamonaviy holatini tadqiq etish;

umumiy sug'urta tarmog'i va hayotni sug'urta qilish sohasining investitsion salohiyatini qiyosiy baholash;

sug'urta tashkilotlarining investitsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirish amaliyoti tahlilini amalga oshirish;

sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning tavsifini o'rganish;

sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo'lib "O'zbekinvest" sug'urta kompaniyasining investitsion faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati samaradorligini baholash jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, ekonometrik modellash, statistik ma'lumotlarni guruhlash, qiyosiy tahlil, regression va korrelyatsion tahlil, ilmiy abstraksiyalash va boshqa metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sug'urta tashkilotlarining investitsion faoliyati risklarini kamaytirish va daromadlari barqarorligini oshirish maqsadida investitsiya portfelini optimal taqsimlash va diversifikatsiya qilish taklif etilgan;

sug'urta (qayta sug'urta) tashkilotlarining investitsiya instrumentlarini ko'paytirish orqali ipoteka, lizing, mikromoliyalash va qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish asoslangan;

umumiy va hayot sug'urtasi sohasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda sug'urta zaxiralarini shakllantirish va joylashtirish tartibini optimallashtirish taklif etilgan;

sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyati risklarini baholash va boshqa omillarning ta'sirini aniqlash asosida investitsiya portfeli ko'rsatkichlarining 2030-yilgacha prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

sug'urta (qayta sug'urta) tashkilotlarining ipoteka, lizing, mikromoliyalash va qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida investitsiya instrumentlari tarkibini takomillashtirish taklif etilgan;

uzoq muddatli hayot sug'urtasi turlari bo'yicha shakllantirilgan sug'urta zaxiralarini investitsiya qilish maqsadida inflyatsiyaga bog'langan davlat qimmatli qog'ozlarga yo'naltirish taklif etilgan;

davlat ulushiga ega bo'lgan sug'urta tashkilotlarining aksiyalarini investorlarga sotish sharti bilan qo'shimcha emissiya qilish orqali ularning ustav kapitallarini oshirish asoslangan;

sug'urta qildiruvchilarni (jabrlanuvchilarni) majburiy sug'urta shartnomalaridan kelib chiqadigan da'volar bo'yicha davlat bojini to'lashdan ozod etish taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, Jahon Banki guruhi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Milliy statistika qo'mitasining rasmiy statistik ma'lumotlariga, sug'urta kompaniyalarining hisobotlari, shuningdek, boshqa amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflardan sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyati samaradorligini baholashning metodologik asoslarini takomillashtirish ustida ish olib borayotgan olimlar va mutaxassislar ilmiy-tadqiqot ishlarida va milliy iqtisodiyotimizni investitsiya mablag'lari bilan ta'minlashda sug'urta kompaniyalari rolini oshirishga qaratilgan samarali siyosatni ishlab chiqishda fundamental asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan tavsiyalardan sug'urta tizimidagi tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlashga qaratilgan strategiya, konsepsiyalar, iqtisodiy dasturlar hamda sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish, ustuvor yo'nalishlarni belgilashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

sug'urta tashkilotlarining investitsion faoliyati risklarini kamaytirish va daromadlari barqarorligini oshirish maqsadida investitsiya portfelini optimal taqsimlash va diversifikatsiya qilish taklifi "O'zbekinvest" sug'urta kompaniyasi tomonidan amaliyotga joriy qilingan ("O'zbekinvest" sug'urta kompaniyasining 2025-yil 28-maydagi № 01/1-16-son ma'lumotnomasi). Natijada, investitsiya portfelini optimal taqsimlash va diversifikatsiya qilish sug'urta tashkilotining moliyaviy holatini mustahkamlash va barqaror daromad olishga olib keldi;

sug'urta (qayta sug'urta) tashkilotlarining investitsiya instrumentlarini ko'paytirish orqali ipoteka, lizing, mikromoliyalash va qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish taklifi "O'zbekinvest" sug'urta kompaniyasi tomonidan amaliyotga joriy qilingan ("O'zbekinvest" sug'urta kompaniyasining 2025-yil 28-maydagi № 01/1-16-son ma'lumotnomasi). Natijada, investitsiya instrumentlarini ko'paytirish sug'urta va qayta sug'urta tashkilotlarining investitsion faoliyatini diversifikatsiyalash va daromadlarni barqarorlashtirishga xizmat qildi;

umumiy va hayot sug'urtasi sohalarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda sug'urta zaxiralarini shakllantirish va joylashtirish tartibini optimallashtirish taklifi "O'zbekinvest" sug'urta kompaniyasi tomonidan amaliyotga joriy qilingan ("O'zbekinvest" sug'urta kompaniyasining 2025-yil 28-maydagi № 01/1-16-son ma'lumotnomasi). Natijada, umumiy va hayot sug'urtasi sohalarining o'ziga xos jihatlari inobatga olinib, zaxiralarni shakllantirish va investitsiyalarni joylashtirish tartibini optimallashtirish sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini oshirish va risklarni samarali boshqarishga xizmat qildi;

sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyati risklarini baholash va boshqa omillarning ta'sirini aniqlash asosida investitsiya portfeli ko'rsatkichlarining 2030-yilgacha prognoz qiymatlarini ishlab chiqish taklifi "O'zbekinvest" sug'urta kompaniyasi tomonidan amaliyotga joriy qilingan ("O'zbekinvest" sug'urta kompaniyasining 2025-yil 28-maydagi № 01/1-16-son ma'lumotnomasi). Natijada, investitsiya portfeli ko'rsatkichlarining prognoz qiymatlari sug'urta tashkilotlariga kelajakdagi moliyaviy holatini yaxshiroq boshqarish va barqaror o'sishga erishishida muhim vosita bo'ldi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan, 8 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, shundan 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga olgan holda 130 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, asosiy vazifalari, obyekti hamda predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy, amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatining ilmiy-nazariy va uslubiy asoslari**" deb nomlangan bo'lib, sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining iqtisodiy mohiyati va o'ziga xos xususiyatlar, sug'urta kompaniyalarining investitsion salohiyati va unga ta'sir etuvchi omillar, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatini amalga oshirishning zamonaviy holati va tendensiyalari o'rganilgan va xulosalar shakllantirilgan.

Sug'urta kompaniyalari nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi muhim institutlar, balki mamlakat iqtisodiy tizimining faol ishtirokchilari sifatida ham alohida o'rin egallaydi. Ularning asosiy funksiyalaridan biri sug'urta xizmatlarini ko'rsatish orqali aholining va xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlash bo'lsa, ikkinchi muhim faoliyat yo'nalishi investitsion faoliyat hisoblanadi. Investitsion faoliyat sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi, daromadlarini oshirish va majburiyatlarni vaqtida bajarish imkoniyatini kengaytiradi. Shu boisdan, sug'urta kompaniyalari tomonidan amalga oshirilayotgan investitsion faoliyatning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o'rganish va ularning uslubiy jihatlarini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Sug'urta tashkilotlari investitsion faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan: Professor O.Okorokova fikriga ko'ra, sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishini amaliy jihatlari o'rganilib, ularning investitsiya faoliyatini rivojlantirishni asosiy yo'nalishlari va vositalari aniqlangan. Shuningdek, sug'urta tashkilotlarining investitsion faoliyatini rivojlantirishni muammolari va ustuvor yo'nalishlari o'rganib chiqilgan⁵. Fikrimizcha, mazkur ilmiy yondashuvlar sug'urta kompaniyalari tomonidan investitsiya resurslarining samarali boshqarilishini ta'minlashda muhim nazariy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Ammo shuni alohida ta'kidlash joizki, har bir davlatning iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy muhitidan kelib chiqib, investitsion faoliyatga oid yondashuvlar o'ziga xoslik kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston sharoitida sug'urta tashkilotlari investitsion faoliyatining mavjud holatini tahlil qilish, uni yanada takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish va xalqaro tajribalarga tayangan holda milliy modelni shakllantirish dolzarb vazifa sanaladi.

E.Artemova va N.Kolesnikovlar ta'kidlashicha, zamonaviy rivojlanish sharoitlarida sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini ta'minlash masalalari xorijiy va mahalliy sug'urta kompaniyalarining investitsiya strategiyalarini solishtirma tahlillar asosida o'rganilgan⁶. Fikrimizcha, ushbu yondashuv sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatidagi samaradorlik omillarini aniqlash va ularning milliy iqtisodiyotga ta'sirini baholashda muhim ahamiyatga ega. Solishtirma tahlil orqali turli mamlakatlarda qo'llanilayotgan investitsiya strategiyalari, ularning afzallik va kamchiliklari aniqlanib, O'zbekiston sug'urta bozori sharoitida qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqishga zamin yaratadi.

V.Inayev tomonidan rivojlangan mamlakatlarda sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatining asosiy yo'nalishlarini tadqiq etilgan hamda Rossiya Federatsiyasida faoliyat yurituvchi sug'urta kompaniyalarning investitsion faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqqan va qo'llash imkoniyatlari⁷ taklif qilingan. Fikrimizcha, bu kabi ilmiy izlanishlar sug'urta kompaniyalarining investitsion strategiyasini shakllantirishda xalqaro tajribalarning ahamiyatini namoyon etadi.

N.Nikulina va I.Ushakovlar tomonidan AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiyaning sug'urta tashkilotlarini sug'urta mukofotlari YaIM tarkibidagi ulushining o'zgarishi dinamikasini hamda AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiyada sug'urta tashkilotlarining investitsion faoliyatini tashkil etish bo'yicha tajribalarini tahlil qilib, vaqtincha bo'sh mablag'larni joylashtirish normalari bo'yicha qoidalar ishlab chiqishda tavsiyalar beradilar hamda sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini

⁵ Зарубежный опыт инвестиционной деятельности страховых компаний – тема научной статьи по экономике и бизнесу. Читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка (cyberleninka.ru).

⁶ Особенности инвестиционной деятельности российских и зарубежных страховых компаний – тема научной статьи по экономике и бизнесу. Читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка (cyberleninka.ru).

⁷ <https://cyberleninka.ru/article/n/investirovanie-strahovyh-fondov-zarubezhnyy-opyt-i-rossiyskaya-praktika>

takomillashtirishni batafsil yoritib berishga⁸ e'tiborlarini qaratganlar. Fikrimizcha, ushbu izlanishlar sug'urta kompaniyalari faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsiyalarning tutgan o'rni va samarali boshqaruv mexanizmlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

D.Taraskin sug'urta kompaniyalarining investitsion samaradorligi birinchi navbatda, investitsiyalarni asosan qaysi sohaga joylashtirishga va investitsiyalarni qaysi yo'nalishda ishlatishga bog'liqdir, deb hisoblaydi. Sug'urta tashkilotlarining investitsion faoliyatidan daromad olish uning asosiy funksiyasi hisoblanmaydi biroq, ushbu daromadlar sug'urta javobgarligini kengaytirish va alohida sug'urta turlari bo'yicha ta'riflarni pasaytirish, sug'urtalovchining to'lov qobiliyatini oshirishga, material-texnik bazasini mustahkamlash va sug'urta ishini boshqa yo'nalishlarda rivojlantirishga mezon bo'ladi va mamlakat iqtisodiyotini muvozanatlash va barqarorlashtirishga yordam beradi⁹, deb ta'kidlagan. Fikrimizcha, bu yondashuv sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini nafaqat moliyaviy foyda manbai sifatida, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi vosita sifatida ham ko'rib chiqishga asos beradi. Shuningdek, investitsiya resurslarining oqilona taqsimlanishi sug'urta xizmatlarining ommaviyligini oshiradi.

A.Turgaeva sug'urta bozorini rivojlantirish muammolari va istiqbollarini ochib bergan. Shuningdek, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini va to'lov qobiliyatini oshirishda sug'urta kompaniyalarining investitsion salohiyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqqan. Investitsion salohiyatga to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ko'rsatkichlarga ta'sir qiluvchi omillarni tasniflab chiqqan¹⁰. Fikrimizcha, bu yondashuv sug'urta kompaniyalari faoliyatining samaradorligini baholashda kompleks yondashuvning muhimligini ko'rsatadi. Investitsion salohiyatning ko'rsatkichlar tizimi sug'urta kompaniyalarining investitsion strategiyasini shakllantirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

L.Chechenova va E.Popovichlar tomonidan sug'urta kompaniyasining investitsion salohiyatini shakllantirish, sug'urta shartnomalari va boshqa majburiyatlari sug'urta kompaniyalarining investitsion salohiyatiga ta'siri, sug'urta kompaniyalarining investitsion salohiyati hajmini belgilaydigan va moslashtiradigan ko'rsatkichlar tizimi o'rganilgan¹¹. Fikrimizcha, bu kabi tadqiqotlar sug'urta kompaniyalarining investitsion imkoniyatlarini baholashda va strategik rejalashtirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, sug'urta shartnomalari bilan bog'liq majburiyatlarning investitsion salohiyatga ta'sirini aniqlash orqali kompaniya o'z investitsiya faoliyatini risklar bilan uyg'unlashtirilgan holda boshqarishi mumkin bo'ladi.

G.Bajanov tomonidan sug'urta kompaniyalarining investitsion salohiyati va

⁸ <https://cyberleninka.ru/article/n/evolyutsiya-razvitiya-i-analiz-opyta-organizatsii-investitsionnoy-deyatelnosti-zaru-bezhnyh-strahovschikov>

⁹ <http://edrf.ru/article/09-10-19>

¹⁰ А.А.Тургаева «Инвестиционный потенциал страховых компания и оценка их конкурентоспособности». – Finance and Credit, 2017, volume 23, issue 2, pages 89–109.

¹¹ Л.А.Чеченова, Е.А.Попович. «Инвестиционный потенциал страховых компания» //Экономика и бизнес, 2012 г. 7-ст.

imkoniyatlari, iqtisodiyotga jamg'armalarni safarbar qilish, sarmoyalashda mahalliy va xorijiy sug'urta kompaniyalarining o'rni va rolini o'rganib chiqqan¹². Fikrimizcha, sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini nafaqat kompaniyaning ichki imkoniyatlari bilan, balki makroiqtisodiy muhit va global bozor sharoitlari bilan bog'liq ravishda ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Mahalliy olimlarimizdan X.Shennayev sug'urta summasi har doim sug'urta mukofotidan ko'p bo'lishi bilan asoslanadigan sug'urta mahsulotining o'ziga xos xususiyatini qayd qiladi. Bu nisbat sug'urta mahsulotlarining bozor jozibadorligini va ularga bo'lgan talabni tavsiflaydi. Sug'urta hodisalari yuzaga kelishining ehtimoli tufayli sug'urta xizmatini sotib olishning iqtisodiy mohiyati namoyon bo'ladi¹³. Fikrimizcha, sug'urta summasi va mukofot o'rtasidagi nisbat sug'urta bozorining raqobatbardoshligini va bozor talabini shakllantiradi.

I.Kenjayevev fikriga ko'ra, iqtisodiyotga zarur darajadagi investitsiyalarni jalb qilish va ularning samaradorligini ta'minlash xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsion faolligini oshirishga va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga olib keladi¹⁴. Fikrimizcha, investitsion faollikni oshirish orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning asosiy shartlari yaratilib, yangi ish o'rinlari va raqobatbardosh sohalar shakllanadi. Shuningdek, sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish, uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

N.Babayeva ta'kidlashicha, investitsion jarayonlarni kengaytirish va kuchaytirishga qaratilgan davlat siyosati milliy sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyati bilan faol shug'ullanishlariga imkoniyat yaratmoqda¹⁵. Fikrimizcha, davlat siyosatining bunday yondashuvi sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyatini rivojlantirishga katta turtki beradi.

N.Karimov fikricha, investitsiyalar foyda olish maqsadida iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga joylashtiriladigan sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) har qanday shakldagi qo'lga kiritilgan yoki nazorat qilinadigan aktivlari, investitsiya faoliyati sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmuidir¹⁶. Fikrimizcha, sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati nafaqat ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, balki samarali resurslarni boshqarish va strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

N.Mavrulova ilmiy ishlarida, iqtisodiyoti rivojlangan dunyo mamlakatlarida sug'urta kompaniyalari uchun yetarli darajada keng investitsiya instrumentlari taqdim etilgan bo'lib, bular sifatida keng turdagi davlat, munitsipal va korporativ qimmatli qog'ozlar, uy-joy sertifikatlari, investitsiya fondi paylari, bank va nobank

¹² Г.С.Бажанов «Инвестиционный потенциал и возможности российских страховых компания» //Экономика и бизнес 2008. № 2. 7-ст.

¹³ Shennayev X.M., Zapparxodjaev D. Sug'urta mahsulotlari sotilishining o'ziga xos xususiyatlari. // "Moliya" ilmiy jurnali. – T., 2013. 2-son (08.00.00. № 12). 65-69 b.

¹⁴ Kenjayevev I.G'. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligin oshirish yo'llari. i.f.f.d. PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: TMI 2019 y. 21 b.

¹⁵ Babayeva N.M. Sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.TMI 2023, Navoiy nomidagi davlat kutubxonasi.

¹⁶ N.G'.Karimov "Investitsiyani tashkil etish va moliyalashtirish" o'quv qo'llanmasi. Toshkent-2011.

muassasalarining depozit sertifikatlari, ko'chmas mulk, qimmatbaho metallar kabilarni keltirish mumkin¹⁷. Fikrimizcha, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati daromad manbalaridan biri sifatida asosiy faoliyatni o'zgarishi, kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va risklarni diversifikatsiya qilish uchun muhimdir.

Yuqoridagilarni umumlashtirib sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyati samaradorligini baholashning mazmun-mohiyatini ifodalovchi quyidagicha ta'rif berishni maqsadga muvofiq deb bildik. *Fikrimizcha, sug'urta kompaniyasining investitsion faoliyati samaradorligi – bu uning investitsiya resurslarini maqsadli, oqilona va xavfsiz yo 'naltirish orqali maksimal darajada daromad olish va shu bilan birga sug'urta majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajarish imkoniyatini ta'minlash darajasidir.*

Bugungi kunda dunyo miqyosida sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati keng ko'lamda olib borilmoqda. Jahon tajribasidan ko'rinib turibdiki, rivojlangan davlatlarda sug'urta kompaniyalari o'z daromadlarining asosiy qismini investitsion faoliyatdan olishmoqda. Shu bilan birga, investitsion salohiyatning shakllanishi va uni amalga oshirishda iqtisodiy, institutsional, qonunchilik va ichki boshqaruv omillari muhim rol o'ynaydi.

Sug'urta kompaniyalarining investitsion salohiyati, ya'ni kompaniyaning investitsiyalarni samarali boshqarish va foyda olish qobiliyati, ko'plab omillarga bog'liq. Ular iqtisodiy, moliyaviy, regulyator va ichki faktorlardan tortib, tashqi muhit va bozor sharoitlariga qadar keng ko'lamli omillarni o'z ichiga oladi. Quyida sug'urta kompaniyalarining investitsion salohiyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni ko'rib chiqamiz:

Sug'urta kompaniyalarining investitsion salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar



1. Iqtisodiy sharoitlar



Sug'urta kompaniyalarining investitsion salohiyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri iqtisodiy sharoitlar hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotining rivojlanish darajasi, inflyatsiya darajasi, foiz stavkalari, valyuta kurslari, iqtisodiy o'sish sur'ati omillar bevosita ta'sir qiladi.

2. Moliyaviy holat va kapital salohiyati



Sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligi va kapitali investitsion salohiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Agar kompaniyaning likvidligi yuqori bo'lsa va kapitali yaxshi holatda bo'lsa, u holda kompaniya ko'proq va xavfsizroq investitsion imkoniyatlarni qidirishi mumkin.

3. Regulyator talablar va normativlar



Sug'urta sanoatidagi regulyatsiya va normativlar ham investitsion salohiyatga ta'sir qiladi. Sug'urta kompaniyalariga belgilangan kapitalga bo'lgan talablar, investitsiya strategiyasini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

4. Investitsion strategiya va boshqaruv



Sug'urta kompaniyasining investitsion salohiyati, uning boshqaruvining qobiliyatiga ham bog'liq. Yaxshi boshqaruvchilarning investitsion qarorlar qabul qilishdagi muvaffaqiyati kompaniyaning moliyaviy barqarorligini oshirishi va investitsion imkoniyatlarni yanada kengaytirishi mumkin.

5. Sarmoya vositalarining xilma-xilligi



Sug'urta kompaniyalarining investitsion portfeli va uning xilma-xilligi ham investitsion salohiyatiga ta'sir qiladi. Investitsion portfellda turli xil aktivlar (qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qimmatbaho metallar, bank depozitlari va boshqalar) bo'lishi kompaniyaning xavf darajasini kamaytiradi va yuqori daromad olish imkoniyatlarini yaratadi.

6. Xalqaro bozorlar va global iqtisodiy tendensiyalar



Xalqaro bozorlar va global iqtisodiy tendensiyalar ham sug'urta kompaniyalarining investitsion salohiyatiga ta'sir qiladi. Masalan, global iqtisodiy inqiroz, global valyuta kurslaridagi o'zgarishlar yoki xalqaro bozorlar uchun yangi imkoniyatlar sug'urta kompaniyalarining investitsion strategiyasini qayta ko'rib chiqishga majbur qiladi.

7. Texnologik yangiliklar va innovatsiyalar



Texnologik rivojlanish va innovatsiyalar sug'urta kompaniyalarining investitsion salohiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili va blokcheyn texnologiyalari kabi yangi texnologiyalar, kompaniyalariga investitsion qarorlarni tezroq va aniqroq qabul qilish imkonini beradi.

1-rasm. Sug'urta kompaniyalarining investitsion salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar¹⁸

¹⁷ Mavrulova N.A. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qayta sug'urtaning rolini oshirish. I.f.f.d. PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: TMI, 2019-yil. 75-bet.

¹⁸ Muallif tomonidan tayyorlangan.

Sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati bu nafaqat vaqtincha bo'sh mablag'larni daromadli yo'nalishlarga yo'naltirish jarayoni, balki butun moliyaviy tizimning barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin egallaydigan strategik faoliyat yo'nalishidir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda sug'urta kompaniyalari o'zining asosiy daromad manbaini investitsiyaviy faoliyatdan olmoqda va iqtisodiyotning turli sohalarini sarmoya bilan ta'minlovchi muhim institutlar sifatida faoliyat yuritmoqda.

2024-yilda dunyo bo'yicha eng yirik sug'urta kompaniyalari ro'yxatida asosan AQSh, Germaniya va Xitoy davlatlari yetakchilik qilmoqda. Kompaniyalar daromad, aktivlar va bozor qiymati bo'yicha turlicha ustunliklarga ega.

1-jadval

2024-yilda dunyodagi eng yirik 20 ta sug'urta kompaniyalarining ko'rsatkichlari, milliard AQSh dollarida¹⁹

Mamlakat	Kompaniya	Darajasi	Global reytingi	Foydasi	Aktivlari	Bozor qiymati
AQSh	Berkshire Hathaway	1	2	73,42	1 070,04	899,14
AQSh	UnitedHealth Group	2	19	15,36	284,21	482,86
Xitoy	Ping An sug'urta guruhi	3	29	11,78	1 654,80	105,50
Germaniya	Allianz	4	31	9,74	1 056,84	113,85
Fransiya	AXA guruhi	5	51	7,57	684,04	81,60
Hindiston	Life Insurance Corp	6	70	4,88	561,41	73,63
AQSh	Elevance Health	7	81	6,24	111,89	127,30
Italiya	Intesa Sanpaolo Assicura	8	84	9,12	1 006,15	74,85
Shveytsariya	Chubb	9	86	9,28	212,25	111,37
AQSh	Cigna	10	95	3,62	148,45	96,22
Germaniya	Munich Re	11	96	4,98	298,01	65,08
Shveytsariya	Zurich sug'urta guruhi	12	98	4,36	339,44	74,90
Xitoy	Xitoy hayot sug'urtasi	13	116	6,61	818,09	47,10
AQSh	AQSh xalqaro guruhi	14	131	4,83	475,56	53,45
AQSh	Progressiv	15	137	5,79	88,92	122,54
Italiya	Generali guruhi	16	141	4,05	555,27	42,00
Yaponiya	Marine Holdings	17	149	44,3	212,31	61,76
Niderlandiya	ING guruhi	18	153	7,89	1 112,27	55,85
AQSh	MetLife	19	157	2,37	677,58	52,78
Gonkong	AIA guruhi	20	161	3,76	278,81	93,73

Xitoyning Ping An kompaniyasi eng ko'p aktivga ega, ya'ni 1,65 trln AQSh dollar. Bunday ko'rsatkich kompaniyaning moliyaviy barqarorligini va keng portfelli xizmatlarga ega ekanligini anglatadi. Berkshire Hathaway kompaniyasi foyda bo'yicha raqobatchilaridan ancha oldinda 73,42 mlrd AQSh dollar bu kompaniyaning nafaqat sug'urta, balki sarmoya va xolding faoliyati bilan bog'liq daromadlaridan dalolat beradi. Bozor qiymati bo'yicha ham Berkshire Hathaway birinchi o'rinda 899 mlrd AQSh dollar – bu investorlar ishonchi yuqori bo'lgan eng

¹⁹ <https://www.atlas-mag.net/en/article/forbes-2000-top-20-of-the-largest-insurers-in-2025>


kuchli brendlardan biri ekanini ko'rsatadi. AQSh kompaniyalari bozordagi umumiy hajm va foyda bo'yicha yetakchi bo'lsa-da, Osiyo kompaniyalari (ayniqsa Xitoy) aktivlar hajmi bo'yicha yetakchilik qilmoqda. Marine Holdings (Yaponiya) juda katta foyda 44,3 mlrd AQSh dollar ko'rsatgan bo'lsa-da, bozor qiymati nisbatan pastroq, ya'ni 61,76 mlrd AQSh dollarni tashkil qilgan. Life Insurance Corp (Hindiston) bozor qiymati past bo'lishiga qaramay, katta aktivlarga ega 561,41 mlrd AQSh dollar, bu davlat moliyaviy instituti sifatida ishonchli rol o'ynayotganini ko'rsatadi.

Dunyo sug'urta bozori yirik konsolidatsiyalashgan kompaniyalar qo'lida bo'lib, ularning muvaffaqiyati aktivlar hajmi, foyda darajasi, diversifikatsiya va investorlar ishonchiga bevosita bog'liqdir. AQSh kompaniyalari global bozorda ustunlik qilayotgan bo'lsa-da, Osiyo va Yevropa kompaniyalari ham kuchli raqobatchilar sifatida oldinga chiqmoqda.

Dissertatsiyaning **“Sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining samaradorligi tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatini amalga oshirishning zamonaviy holati va tahlili amalga oshirilgan, umumiy sug'urta tarmog'i va hayotni sug'urta qilish sohasining investitsion salohiyatini qiyosiy baholash, sug'urta tashkilotlarining investitsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirish amaliyoti tahlil qilingan.

Bugungi kunda iqtisodiy rivojlanish jarayonida sug'urta tashkilotlari nafaqat sug'urta xizmatlari ko'rsatishda, balki mamlakat moliyaviy bozorining muhim ishtirokchilari sifatida ham alohida o'rin tutmoqda. Sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati ularning barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bois, investitsion faoliyatning samaradorligini tahlil qilish sug'urta tashkilotlari faoliyatining sifatli boshqaruvi va iqtisodiy natijalarini oshirish uchun dolzarb masalaga aylanmoqda.

2023-yil sug'urta xizmatlar bozorida 8059,7 mlrd so'm sug'urta mukofotlari yig'ishga erishildi, bu o'tgan 2022-yilga nisbatan 29,3 foizga ko'pdir (umumiy sug'urta tarmog'ida o'sish o'tgan yilga nisbatan 64,4 foizga ko'p, hayot sug'urtasi esa o'tgan 2022-yilga nisbatan 78,8 foizga kamaygan).



2-rasm. Milliy sug'urta bozorida yig'ilgan sug'urta mukofotlari va to'lab berilgan sug'urta qoplamalarining o'zgarish dinamikasi²⁰

²⁰ Muallif tomonidan tayyorlangan.

Sug'urta qoplamalari 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 22,1 foizga kamaygan, bundan umumiy sug'urta tarmog'idagi sug'urta qoplamalari 42,7 foizga o'sgani bilan hayotni sug'urta qilish tarmog'i 69,7 foizga kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Sug'urta qoplamalaridagi bunday o'zgarish 2021–2022-yillarda hayot sug'urtasi bo'yicha berilgan qator imtiyozlarning bekor qilinishi natijasida yuzaga kelganligini tahmin qilishimiz mumkin. Shuningdek, 2022-yilda hayot sug'urtasidagi sug'urta turlari bo'yicha sug'urta qoplamalarini (jamg'arib boriladigan) yalpi qaytarish amaliyoti kuzatilganligini ham ta'kidlashimiz mumkin.

“O'zbekinvest” sug'urta kompaniyasining 2017-yil 1-yanvardan 2024-yil 1-yanvargacha bo'lgan asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilib chiqamiz. Kompaniya barcha yo'nalishlarda jadal o'sishga erishgan. Ayniqsa, eksport sug'urtasi bo'yicha majburiyatlar 43 ming martadan ortiq oshgan, bu kompaniyaning xalqaro faoliyatda sezilarli rivojlanayotganini ko'rsatadi.

2-jadval

“O'zbekinvest” sug'urta kompaniyasining asosiy ko'rsatkichlari²¹

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	01.01.2017y.	01.01.2024y.	Marta o'sish	%da o'sish
Qabul qilingan majburiyatlar hajmi, shu jumladan:	trln so'm	58,6	492,4	8,4	841 %
Korporativ mijozlar	trln so'm	57,2	427,9	7,5	747 %
Jismoniy shaxslar	trln so'm	1,3	64,5	49,1	4909 %
Eksport sug'urtasi bo'yicha majburiyatlar hajmi	mln AQSh doll.	0,059	2 547,0	43 169,6	4316959 %
Sug'urta mukofotlari umumiy yig'imi, shu jumladan:	mlrd so'm	103,9	1 233,9	11,9	1188 %
Bosh Kompaniya	mlrd so'm	65,9	1 034,2	15,7	1569 %
Filiallar	mlrd so'm	38,0	199,6	5,3	525 %

“O'zbekinvest” sug'urta kompaniyasi barcha asosiy faoliyat yo'nalishlarida barqaror o'sishga erishdi. Kompaniyaning moliyaviy ko'rsatkichlari, mijozlar bazasi va xizmat ko'rsatish hajmi bo'yicha rivojlanishi quyidagi jihatlarni ko'rsatdi. Jumladan: qabul qilingan majburiyatlar hajmi 8 baravardan ziyodga oshib, kompaniya milliy sug'urta sohasining yirik kompaniyasiga aylandi. Daromad bazasi sezilarli kengaydi va natijada, sug'urta mukofotlari yig'imi 11,9 baravarga oshib, moliyaviy barqarorlikka erishgan.

“O'zbekinvest” sug'urta kompaniyasining 2017-yildan 2024-yilgacha bo'lgan asosiy operatsion ko'rsatkichlarini tahlil qilib chiqamiz. Ushbu yillar davomida mijozlar soni 7,5 baravarga oshdi, korporativ mijozlar 3,8 baravar, jismoniy shaxslar 8,2 baravar, xodimlar soni 441 dan 589 nafarga (+134 %) o'sganini ko'rishimiz mumkin.


“O'zbekinvest” sug'urta kompaniyasi 2017–2024-yillar davomida nafaqat moliyaviy jihatdan, balki operatsion samaradorlik va mijozlar bazasini kengaytirish borasida ham sezilarli yutuqlarga erishdi. Kompaniya hozirgi kunda keng tarmoqli, samarali boshqaruvga ega va raqamlashtirilgan xizmatlar asosida ishlovchi zamonaviy sug'urta kompaniyasiga aylangan.

²¹ Muallif tomonidan tayyorlangan.

“O‘zbekinvest” sug‘urta kompaniyasining asosiy ko‘rsatkichlari²²

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	01.01.2017 y.	01.01.2024 y.	Marta o‘shish	%da o‘shish
Mijozlarning jami soni, shu jumladan:	birlik	146 397	1 096 528	7,5	749 %
Korporativ mijozlar	birlik	23 667	90 188	3,8	381 %
Jismoniy shaxslar	birlik	122 730	1 006 340	8,2	820 %
Xodimlarning jami soni, shu jumladan:	birlik	441	589	1,3	134 %
Bosh Kompaniya	birlik	124	110	0,9	89 %
Filiallar	birlik	317	479	1,5	151 %
Bir xodimga to‘g‘ri keladigan mehnat unumdorligi, shu jumladan:	mlrd so‘m	0,24	2,09	8,9	889 %
Bosh Kompaniya	mlrd so‘m	0,53	9,40	17,7	1769 %
Filiallar	mlrd so‘m	0,12	0,42	3,5	348 %

2019–2023-yillar oralig‘ida O‘zbekiston sug‘urta bozorida to‘lovlar hajmida keskin o‘zgaruvchanlik kuzatildi: 2019-yil 813,5 mlrd so‘m, 2020-yil 732,3 mlrd so‘m (pasayish – 10 foiz), 2021-yil 1 235,1 mlrd so‘m (o‘shish – 68 foiz), 2022-yil 2 596,9 mlrd so‘m (kuchli o‘shish – 110 foiz), 2023-yilda 2 022,1 mlrd so‘m (qisman pasayish – 22 foiz)ni tashkil qilgan. O‘zbekiston sug‘urta bozorida sug‘urta to‘lovlari hajmi 2019–2023-yillarda umuman olganda o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib, 813,5 mlrd so‘mdan 2 022,1 mlrd so‘mga yetdi. Bu 5 yillik davrda 2,5 baravarga yaqin o‘shishni anglatadi.


**3-rasm. O‘zbekiston sug‘urta bozorining hozirgi holati, mlrd so‘m²³**

Bozor bo‘yicha sug‘urta mukofotlarining o‘rtacha zarariligi 27 foizni tashkil qiladi. “O‘zbekinvest” kompaniyasi bo‘yicha zarar ko‘rsatkichi 10,7 foizni tashkil etadi. Sug‘urta to‘lovlari hajmining o‘shish tendensiyasi O‘zbekiston sug‘urta bozorining barqaror rivojlanishi va ishonchliligining o‘shib borayotganidan dalolat beradi.

²² Muallif tomonidan tayyorlangan.

²³ Muallif tomonidan tayyorlangan.

“O‘zbekinvest” EISK AJning kapital ko‘rsatkichi 2019-yildan 2020-yilgacha oshgan, keyingi yillarda esa barqaror 282,2 mlrd so‘m darajasida saqlanmoqda. Bu kompaniyaning ustav kapitali mustahkamligini ko‘rsatadi, ammo o‘shish sur‘ati sekinlashgan. Zaxira hajmi esa sezilarli darajada oshgan, ayniqsa 2021-yildan 2023-yilgacha o‘shishi kuzatiladi, ya’ni 226,1 mlrd so‘mdan 1317,4 mlrd so‘mga yetgan. Bu sug‘urta tovonlari va boshqa majburiyatlarni qoplash uchun resurslarning sezilarli darajada kuchayishini bildiradi.




4-rasm. “O‘zbekinvest” EISK AJ kapitali, zaxirasi va aktivlari, mlrd so‘m²⁴

Aktivlar hajmi doimiy ravishda oshib borib, 2019-yildagi 965,1 mlrd so‘mdan 2023-yilda 2025,1 mlrd so‘mga yetgan. Bu kompaniyaning moliyaviy resurslari va investitsion imkoniyatlarining o‘shib borayotganligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, “O‘zbekinvest” EISK AJ o‘zining moliyaviy barqarorligini saqlab qolgan holda, sug‘urta zaxiralari va aktivlarini sezilarli darajada oshirish orqali o‘shish sur‘atlarini namoyon qilmoqda. Bu esa kompaniyaning sug‘urta bozoridagi raqobatbardoshligini va investitsion salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.


Quyidagi 5-rasmda O‘zbekiston sug‘urta bozorida sug‘urta mukofoti yig‘imining 2019-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan o‘shish dinamikasi keltirilgan. 2019-yildan 2020-yilgacha sug‘urta mukofotlari yig‘imida biroz pasayish kuzatilgan (2313,9 dan 2211,7 mlrd so‘mga), bu ehtimol pandemiya davrida iqtisodiy faollikning kamayishi bilan bog‘liq. 2021-yildan boshlab, sug‘urta mukofotlari yig‘imi sezilarli darajada oshib, 2023-yilda 8059,7 mlrd so‘mga yetgan. Bu davrda sug‘urta bozorining tiklanishi va kengayishi, shuningdek, iqtisodiyotning ijobiy rivojlanishi ko‘zga tashlanadi. O‘zbekiston sug‘urta bozorida sug‘urta mukofotlari yig‘imi so‘nggi yillarda barqaror o‘shish sur‘atlarini ko‘rsatmoqda, bu esa sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talabning ortishi va sug‘urta kompaniyalarining faoliyatini samaradorligini tasdiqlaydi.

²⁴ Muallif tomonidan tayyorlangan.



5-rasm. O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta mukofoti yig'imining o'sish dinamikasi, mlrd so'm²⁵

Sug'urta mukofoti yig'imi 2019-yildan 2021-yilgacha nisbatan sekin o'sish darajasini ko'rsatgan, 2020-yilda biroz kamayish kuzatilgan (260,1 mlrd.so'm). Bu iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. 2022-yildan boshlab "O'zbekinvest" sug'urta mukofoti yig'imi keskin oshib, 2023-yilda 1233,9 mlrd so'mga yetgan. Bu yirik o'sish sug'urta xizmatlariga talabning kuchayishi va kompaniyaning bozor pozitsiyasining yaxshilanishidan dalolat beradi. "O'zbekinvest" EISK AJning sug'urta mukofoti yig'imi so'nggi yillarda sezilarli darajada o'sishni ko'rsatmoqda, bu kompaniyaning bozor ulushi va moliyaviy barqarorligining mustahkamlanishi bilan bog'liq.



6-rasm. "O'zbekinvest" EISK AJ sug'urta mukofoti yig'imining hajmi, mlrd so'm va o'sish dinamikasi²⁶

"O'zbekinvest" EISK AJning 2017-yildan 2024-yilgacha bo'lgan qayta sug'urtalash bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari tahlilini amalga oshiramiz. 2017-yilda

²⁵ Muallif tomonidan tayyorlangan.

²⁶ Muallif tomonidan tayyorlangan.

atigi 0,8 ming AQSh dollari bo'lgan qayta sug'urta mukofotlari hajmi 2024-yilga kelib 52 820,1 ming AQSh dollariga yetdi. Qayta sug'urta mukofotlarining kompaniya portfelidagi ulushi ham keskin oshdi. 2017-yilda faqat 0,002 foiz bo'lgan bu ko'rsatkich 2024-yilda 51 foizga yetib, portfelidagi asosiy segmentlardan biriga aylandi.

4-jadval

“O‘zbekinvest” EISK AJning qayta sug‘urtalash bo‘yicha ko‘rsatkichlari²⁷

Ko'rsatkich	O'Ichov birligi	01.01.2017	01.01.2024	O'sish (marta)	O'sish (%da)
Qayta sug'urta mukofotlari	ming AQSh doll.	0,8	52 820,1	65 210	6521001 %
Qayta sug'urta mukofotlarining kompaniya portfelidagi ulushi	%	0,002%	51%	25 380	2538011 %

Kompaniya e'tirof etilgan transmilliy sug'urta va global qayta sug'urta kompaniyalari va brokerlari bilan ishlaydi, masalan: Allianz SE – Germaniya; Zurich Insurance Group – Shveytsariya; Tokio Marine & Nichido Fire Insurance Co – Yaponiya; AXA – Fransiya; People Insurance Company of China – Xitoy; Korean Reinsurance Company – Janubiy Koreya; Marsh – AQSh; AON, UIB, Consilium Insurance Brokers Ltd – Buyuk Britaniya va boshqalar.

Jami sug'urta mukofotlari bo'yicha bozor 2022-yildan 2023-yilga qadar 65,6 foizga o'sdi, ya'ni 4,67 trillion so'mdan 7,74 trillion so'mga yetdi. “O‘zbekinvest”ning sug'urta mukofotlari 2022-yilda 930,5 mlrd so'm bo'lsa, 2023-yilda 1,23 trillion so'mga oshdi, bu 32,6 foiz o'sishga teng.

5-jadval

5 ta sug'urta kompaniyasi ichida “O‘zbekinvest”ning jami sug'urta mukofotlaridagi ulushi²⁸

№	Sug'urta kompaniyalarining nomlanishi	Jami sug'urta mukofotlari		
		31.12.2022	31.12.2023	O'zgarish, %da
	Jami bozor bo'yicha	4 672 270	7 737 236	+65,6 %
1.	AO “APEX INSURANCE”	782 518	2 010 933	+157,0 %
2.	AO EISK “O‘ZBEKINVEST”	930 534	1 233 860	+32,6 %
3.	AO “KAFOLAT SUG‘URTA KOMPANIYASI”	315 509	704 384	+123,3 %
4.	AO “MY-INSURANCE”	196 281	337 727	+72,1 %
5.	AO “GROSS SUG‘URTA KOMPANIYASI”	296 858	450 151	+51,6 %

Top 5 ta sug'urta kompaniyaning bozordagi ulushi 61 foizni tashkil qiladi. “O‘zbekinvest” kompaniyasining ulushi 16 foizni tashkil etadi. “O‘zbekinvest” bozor yetakchilaridan biri bo'lib qolmoqda, ammo bozor raqobati kuchayib borayotgani sabab, kompaniya o'z o'sish strategiyasini yangilab, faoliyat

²⁷ Muallif tomonidan tayyorlangan.

²⁸ Muallif tomonidan tayyorlangan.

samaradorligini oshirishga e'tibor qaratishi zarur.

Milliy sug'urta bozorini nazorat va tartibga solish bo'yicha maxsus vakolatli davlat organining ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda sug'urta ko'rsatkichlarida bir necha ijobiy va salbiy iqtisodiy o'zgarishlar yuz berdi. Ularning asosiylarini ko'rib chiqamiz (6-jadval).

6-jadval

O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining tuzilishi²⁹

Sug'urta bozori tuzilishi	31.12.2022	31.12.2023	O'zgarishi (+/-)
Sug'urta tashkilotlar soni	41	38	-7,3 %
<i>shu jumladan: hayot sug'urtasi bo'yicha</i>	8	7	-12,5 %
Sug'urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali, mln so'mda	1884111	1298572	+22,0 %
Sug'urta brokerlari soni	7	8	+14,3 %
Aktuariylar soni	5	5	0 %
Sug'urta agentlari soni	9155	4736	-48,3 %
<i>shu jumladan: yuridik shaxslar</i>	2625	1711	-34,8 %
To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi a'zolari bo'lgan sug'urta tashkilotlarining soni	25	26	+4,0 %

2023-yil yakunlari bo'yicha sug'urta kompaniyalari soni 7,3 foizga kamaygan. Bunda 5 ta sug'urta kompaniyasi litsenziyasi bekor qilingan ("Asko-vostok" AJ QK, "Sharq-sug'urta" AJ, "Unipolis" AJ, "Garant insurance group" AJ, "Farovon sug'urta" AJ) hamda 1 ta sug'urta kompaniyasi faoliyati vaqtincha to'xtatilgan ("DD general insurance" AJ). Shuningdek, jami sug'urta kompaniyalarining umumiy ustav kapitali o'tgan 2022-yilga nisbatan 22,0 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Sug'urta vositachilari sonida ham keskin o'zgarishlar yuz bergan, ya'ni sug'urta agentlarining soni o'tgan yilga nisbatan 48,3 foizga kamaygan, bu asosan sug'urta agenti deb ro'yxatdan o'tgan yakka tadbirkorlarning faoliyat turlarini muvofiqlashtirish asosida o'zi bergan hamda sohaga raqamli texnologiyalarning jadal kirib borishi ular sonining keskin kamayish tendensiyasini namoyon etib kelmoqda.

Dissertatsiyaning **"Yangi O'zbekistonda sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari"** deb nomlangan uchinchi bobida sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning tavsifi va sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari tadqiq etilib, ushbu bobning yakunida ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Milliy iqtisodiyotda sug'urta bozorining barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan bir qancha muammolar to'planib qolganligini aks ettiradi, xususan, ularning ayrimlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin, jumladan: sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta fondlarini samarasiz ishlatilishi; mahalliy


²⁹ Muallif tomonidan tayyorlangan.

sugʻurta bozorining investitsion salohiyatini amalga oshirishda tarkibiy nomutanosibliklarning mavjudligi; sugʻurtadan nafaqat soliqqa tortishni optimallashtirish vositasi, balki mablagʻlarni yuvish va chet elga valyutani olib chiqish usuli sifatida foydalanish; tanlov erkinligi bilan bir qatorda bozor munosabatlarining asosi boʻlgan raqobatga zarar yetkazuvchi sugʻurta sohasi konsentratsiyasining kuchayishi va monopollashuvi; sugʻurta sohasida nafaqat sugʻurta mahsulotlari isteʼmolchilari tomonidan hamda sugʻurta kompaniyalari tomonidan ham amalga oshiriladigan firibgarligining sezilarli darajada oshishi; aholi, sugʻurta tashkilotlari va bozorning boshqa ishtirokchilarining sugʻurta bilan bogʻliq madaniyatining yetarli emasligi. Yuqorida sanab oʻtilgan muammolarning mavjudligi sohaning barqaror rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatishi sugʻurta bozorining iqtisodiyotdagi roli va konseptual asoslarini qayta koʻrib chiqishni talab qilib qoʻymoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tub oʻzgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, “Yangi Oʻzbekiston” gʻoyasi asosida olib borilayotgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sugʻurta tizimining ham modernizatsiya qilinishini, uning moliyaviy barqarorligini taʼminlashda investitsion faoliyatni yanada rivojlantirish zarurligini taqozo etmoqda. Bugungi kunda sugʻurta kompaniyalari nafaqat moliyaviy xavf-xatarlarni qoplash vositasi, balki iqtisodiyotni moliyalashtirishda muhim investitsion subyekt sifatida ham maydonga chiqmoqda.

Sugʻurta tashkilotlari uchun investitsiya portfelini optimal taqsimlash va diversifikatsiya qilish bu nafaqat risklarni kamaytirish va daromadlarni barqarorlashtirish, balki sugʻurta faoliyatining uzoq muddatli barqarorligini taʼminlashga xizmat qiluvchi strategik qarordir. Sugʻurta tashkilotlarining investitsion faoliyatidagi risklarni kamaytirish va daromadlarning barqarorligini oshirish uchun investitsiya portfelini optimal taqsimlash va diversifikatsiya qilish zaruriy va strategik yondashuv hisoblanadi. Bu yondashuvlarga quyidagilarni keltirib oʻtamiz: kompaniyaning moliyaviy barqarorligini taʼminlaydi; sugʻurta toʻlovlarini oʻz vaqtida amalga oshirish imkonini yaratadi; investitsion daromadlarning oʻzgaruvchanligini kamaytiradi; bozor sharoitlariga moslashuvchanlik va likvidlikni oshiradi.

2019–2023-yillar mobaynida sugʻurta kompaniyalarining investitsion faoliyati sezilarli darajada kengaydi. Bu davrda investitsiyalar hajmi 2 711,9 mlrd soʻmdan 6 149,9 mlrd soʻmga yetib, umumiy hisobda 126,8 foiz oʻsishga erishildi. Yillik investitsion oʻsish har bir bosqichda barqaror saqlanib, ayniqsa 2022- va 2023-yillarda keskin kuchaydi. “Oʻzbekinvest” kompaniyasining 2019-yildagi ulushi 33 foiz, 2023-yilda esa 21 foizni tashkil qilgan. Umuman olganda, sugʻurta kompaniyalarining investitsiyaviy faolligi Oʻzbekistonda moliya bozorining chuqurlashuvi va iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiluvchi muhim omilga aylanmoqda.



7-rasm. O'zbekiston sug'urta bozorining hozirgi holati, mlrd so'm³⁰

Sug'urta va qayta sug'urta tashkilotlarining investitsiya instrumentlarini ko'paytirishi bu investitsiya portfelining diversifikatsiyasi va optimallashtirilishi, daromadlarning barqarorligi va risklarning kamaytirilishi, shuningdek, yangi bozor va iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanishga qaratilgan strategik qadamdir. Ipoteka, lizing, mikromoliyalash va qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiyalar nafaqat sug'urta kompaniyalarining moliyaviy holatini mustahkamlashga yordam beradi, balki iqtisodiy o'sishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, O'zbekistonda lizing bozorining hajmi yillik 20-25 foiz atrofida o'smoqda, bu esa sug'urta kompaniyalari uchun yangi investitsion imkoniyatlarni yaratadi. Mikromoliyalash sohasida esa kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2023-yilda jami 2,5 trln so'mdan ortiq kreditlar berilgan, bu sug'urta investitsiyalari uchun diversifikatsiya imkoniyatini kengaytiradi. Sug'urta kompaniyalarining investitsiyalar hajmi so'nggi yillarda taxminan 2,3 barobar o'sishga erishdi.

2017–2024-yillardagi asosiy ko'rsatkichlarni tahlil qiladigan bo'lsak, korporativ mijozlar bo'yicha mukofotlar 2017-yil 97,0 mlrd so'mga 2024-yilga kelib esa 1 127,6 mlrd so'mga yetgan. Natijada, korporativ mijozlar bo'yicha mukofotlar salmog'i 11,6 baravar o'sishga erishgan. Jismoniy shaxslar bo'yicha mukofotlar esa, 15,4 baravar o'sgan. Investitsion loyihalarni sug'urtalash 2017-yilda 2,5 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 50,8 mlrd so'mga yetgan. Investitsion loyihalarni sug'urtalash 20,3 baravarga o'sishga erishgan.

2017–2024-yillar davomida "O'zbekinvest" sug'urta kompaniyasi o'z faoliyatini jadal va izchil rivojlantirib, nafaqat ichki, balki xalqaro sug'urta bozorida ham muhim o'rin egallashga erishdi. Korporativ mijozlar, jismoniy shaxslar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, EIZ rezidentlari va investitsion loyihalar sug'urtasi bo'yicha ko'rsatkichlar sezilarli darajada oshdi. Bu kompaniyaning turli toifadagi mijozlar ehtiyojini qamrab olish qobiliyatining

³⁰ Muallif tomonidan tayyorlangan.

kuchayganidan dalolat beradi. “O‘zbekinvest” sug‘urta kompaniyasi yillar davomida mamlakatda yetakchi sug‘urta kompaniyasiga, xalqaro miqyosda esa raqobatbardosh va eksportbop xizmatlar ko‘rsatuvchi brendga aylandi.

7-jadval


“O‘zbekinvest” sug‘urta kompaniyasining asosiy ko‘rsatkichlari³¹

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	01.01.2017 y.	01.01.2024 y.	Marta o‘shish	%da o‘shish
Korporativ mijozlar	mlrd so‘m	97,0	1 127,6	11,6	1162 %
Jismoniy shaxslar	mlrd so‘m	6,9	106,3	15,4	1540 %
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni sug‘urta qilish	mlrd so‘m	4,7	44,3	9,4	941 %
Erkin iqtisodiy zonalarning rezidentlarini sug‘urta qilish	mlrd so‘m	1,2	16,1	13,4	1339 %
Investitsion loyihalarni sug‘urta qilish	mlrd so‘m	2,5	50,8	20,3	2030 %
Xalqaro sug‘urta bozorlarida olingan sug‘urta mukofotlari hajmi (sug‘urta xizmatlari eksporti)	ming AQSh doll.	0,8	52 820,1	65 210,0	6521001 %
Xalqaro sug‘urta bozorlarida olingan sug‘urta mukofotlarining umumiy sug‘urta mukofotlari hajmidagi ulushi	foiz	0,002 %	50,8 %	25 380,1	2538011 %
Sug‘urta tovonlari	mlrd so‘m	13,5	132,4	9,8	980 %
Sug‘urta tovonlarining sug‘urta mukofotlari yig‘imiga nisbatan ulushi (zarar)	foiz	13,0 %	10,7 %	0,8	83 %

Umumiy va hayot sug‘urtasi sohalarining o‘ziga xos risklari va majburiyatlari tufayli, sug‘urta zaxiralarini shakllantirish va joylashtirish tartibini optimallashtirish zarur. Bu investitsiya portfelining risk va likvidlik balansini ta‘minlab, sug‘urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligi va to‘lov qobiliyatini oshiradi. O‘zbekiston bozorida hayot sug‘urtasi zaxiralari hajmi 2017–2024-yillar oralig‘ida sezilarli o‘shish ko‘rsatdi (masalan, “O‘zbekinvest” hayot sug‘urtasi zaxiralari bir necha barobar oshdi). Hayot sug‘urtasi zaxiralari uzoq muddatli va kelajakda yuzaga keladigan to‘lovlar uchun shakllantirilgani bois, ular yuqori darajada daromad keltiruvchi uzoq muddatli investitsiya vositalarida joylashtirilishi maqsadga muvofiq. Umumiy va hayot sug‘urtasi sohalarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, sug‘urta zaxiralarini shakllantirish va joylashtirish tartibini optimallashtirish zarur va ular quyidagilardan iborat: sug‘urta kompaniyasining to‘lov qobiliyatini oshiradi, investitsiya risklarini kamaytiradi, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Sug‘urta bozoridagi sug‘urtachilarning kapital hajmi, 2019-yildan 2023-yilgacha 3 barobarga yaqin oshib, sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy poydevori mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi. Bu kompaniyalarning yanada barqaror ishlashi va kengayishi uchun zarur moliyaviy resurslarning o‘shishini bildiradi.

³¹ Muallif tomonidan tayyorlangan.



8-rasm. O‘zR sug‘urta bozoridagi sug‘urtachilarning ustav kapitali, zaxira va aktivlari, mlrd so‘m³²

Sug‘urta kompaniyalarining sug‘urta zaxiralari ham 3 barobardan ortiq o‘shib, risklarni qoplash imkoniyatlarining sezilarli darajada kuchayganini anglatadi. Bu sug‘urta tovonlari va majburiyatlarni bajarishda barqarorlikni ta’minlaydi. Aktivlar hajmi esa, 2019-yildagi 3475,9 mlrd so‘mdan 2023-yilda 9010,8 mlrd so‘mga yetib, 2,6 barobar oshgan. Bu sug‘urta bozorining kengayishi va investitsion imkoniyatlarning ko‘payishidan dalolat beradi. Umuman olganda, ushbu ko‘rsatkichlar O‘zbekiston sug‘urta bozorining o‘shish sur‘atlarini va moliyaviy barqarorligini ko‘rsatadi, sug‘urta kompaniyalari investitsion salohiyatining mustahkamlanayotganini tasdiqlaydi. Bu esa sug‘urta sohasining rivojlanishi va iqtisodiyotdagi rolining ortishiga xizmat qiladi.

Sug‘urta tashkilotlarining investitsion faoliyati risklarini baholash va iqtisodiy, moliyaviy hamda siyosiy omillarni hisobga olgan holda investitsiya portfeli ko‘rsatkichlarining 2030-yilgacha prognoz qiymatlarini ishlab chiqish sug‘urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, risklarni kamaytirish va uzoq muddatli daromadlarni oshirish uchun muhim strategik qadamdir. O‘zbekiston sug‘urta bozorining so‘nggi yillardagi barqaror o‘shishi, xususan, “O‘zbekinvest” kabi yetakchi kompaniyalarning jami sug‘urta mukofotlari va investitsiya hajmining sezilarli darajada oshgani (masalan, 2017-yildan 2024-yilgacha jami sug‘urta mukofotlari 12 barobarga ko‘paygan) sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy salohiyatini mustahkamladi. Shu bilan birga, iqtisodiy o‘shish, inflyatsiya darajasi, foiz stavkalarining o‘zgarishi va global moliyaviy bozorlarning tebranishi kabi tashqi omillar investitsiya portfeli uchun muhim hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotining ajralmas elementi sifatida sug‘urta sektori milliy iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda, aholining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishda va kapital bozorlarini rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi. Xususan, sug‘urta kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladigan

³² Muallif tomonidan tayyorlangan.

to'lovlar hajmi ularning moliyaviy salohiyati, xizmat sifati va ishonchliligining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorida keyingi yillarda kuzatilayotgan islohotlar, jumladan, sug'urtalovchilarning moliyaviy hisobotlari ochiqligini oshirish bo'yicha talablar, investitsion siyosatning faollashuvi bu sohaning chuqur iqtisodiy tahlilini talab etmoqda. Shu jumladan, sug'urta mukofotlari va qoplamalari miqdori, kompaniyalarning investitsiyaviy faoliyati hamda to'lovlar hajmi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash orqali bu sohaning rentabelligi va samaradorligini ilmiy asosda baholash mumkin bo'ladi.

Mazkur tadqiqot STATA 17 dasturi vositasida ekonometrik model qurish orqali sug'urta bozoridagi **“to'lovlar hajmining dinamikasi”**ga ta'sir etuvchi asosiy omillar **“sug'urta mukofotlari”**, **“qoplamalar miqdori”** va **“sug'urtalovchilar investitsiyalari hajmi”** o'rtasidagi statistik munosabatni tahlil qilishga yo'naltirilgan. Tanlangan o'zgaruvchilar amaliy jihatdan sug'urta kompaniyalarining moliyaviy strategiyalarini shakllantirishda muhim bo'lib, regressiya modeli asosida aniqlangan bog'liqliklar orqali ilmiy asoslangan xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

8-jadval

Ma'lumotlarning tavsifiy statistikasi³³

. sum

Variable	Obs	Mean	Std. dev.	Min	Max
Yillar	5	2021	1.581139	2019	2023
O'zRbozori~r	5	1479.98	806.9374	732.3	2596.9
Sugurtamuk~m	5	4510.06	2562.811	2212	8059.7
Sugurtaqop~m	5	1479.9	807.0144	732	2596.9
OZRbozori~r	5	4148.58	1339.885	2711.9	6149.9

Jadvalda 2019–2023-yillar oralig'ida O'zbekiston sug'urta bozoriga oid to'rtta asosiy iqtisodiy ko'rsatkich bo'yicha statistik xulosa keltirilgan. Bu ko'rsatkichlar orasida sug'urta mukofotlari, sug'urta qoplamalari, sug'urtalovchilarning investitsiyalari hajmi hamda sug'urta to'lovlari hajmining dinamikasi mavjud.

Eng yuqori o'rtacha qiymat sug'urta mukofotlariga tegishli bo'lib, u 4510,06 mlrd so'mni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichda 2562,81 mlrd so'm darajasida nisbatan katta dispersiya kuzatilgan bo'lib, bu yillik ko'rsatkichlar orasida sezilarli farq borligini bildiradi. Minimum qiymat 2212 mlrd so'm, maksimum esa 8059,7 mlrd so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, sug'urta qoplamalari ham o'rtacha 1479,9 mlrd so'm bo'lgan, bu ko'rsatkich investitsiyalar bilan bir xil darajada. Bu ikki indikator uchun eng past qiymat 732 mlrd so'm, eng yuqorisi esa 2596,9 mlrd so'mni tashkil etmoqda. Bu yerda ta'kidlash joizki, investitsiyalar va qoplamalar qiymatlari mutanosib va o'zaro bog'liq bo'lishi mumkin. Sug'urtalovchilarning investitsiyalari hajmi esa o'rtacha 1479,98 mlrd so'm atrofida bo'lib, bu ham standart og'ish jihatidan yuqori darajada (806,93 mlrd so'm) o'zgaruvchanligini ko'rsatadi.

³³ Muallif tomonidan tayyorlangan.

Eng soʻnggi koʻrsatkich Oʻzbekiston bozorida sugʻurta toʻlovlari hajmining dinamikasi oʻrtacha 4148,58 mlrd soʻm bilan namoyon boʻlgan. Ushbu indikatorning eng past qiymati 2711,9 mlrd soʻm, yuqorisi esa 6149,9 mlrd soʻmga yetgan. Ushbu farq asosida bozor hajmi va aktivlik darajasida yildan-yilga oʻzgarishlar mavjudligini taxmin qilish mumkin.

9-jadval


Koʻrsatkichlar korrelyatsiya³⁴

. pwcorr

	Yillar	OʻzRbozor	Sugʻurta mukofotlari	Sugʻurta qoplamalari	OZRbozorid
Yillar	1.0000				
OʻzRbozorid	0.8390	1.0000			
Sugʻurta mukofotlari	0.9570	0.8727	1.0000		
Sugʻurta qoplamalari	0.8390	1.0000	0.8728	1.0000	
OZRbozorid	0.9730	0.7832	0.9734	0.7832	1.0000

Yuqoridagi jadvalda Oʻzbekiston sugʻurta bozoriga oid beshta asosiy oʻzgaruvchining oʻzaro bogʻliqlik darajasi korrelyatsion koeffitsiyentlar yordamida ifodalangan. Korrelyatsiya koeffitsiyenti 1 ga yaqin boʻlsa, bu kuchli ijobiy bogʻliqlikni, -1 ga yaqin boʻlsa, kuchli salbiy bogʻliqlikni bildiradi. 0 atrofidagi qiymatlar esa deyarli bogʻliqlik yoʻqligini anglatadi.

Korrelyatsiya tahlili asosida aniqlanishicha, Oʻzbekiston sugʻurta bozorida koʻrsatkichlar orasida kuchli ijobiy bogʻliqliklar mavjud. Ayniqsa, sugʻurta qoplamalari va toʻlovlar, shuningdek, mukofotlar va investitsiyalar oʻrtasidagi bogʻliqliklar statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori. Bu esa tahlil qilinayotgan koʻrsatkichlar bir-biri bilan iqtisodiy va moliyaviy jihatdan uzviy bogʻlanganligini koʻrsatadi. Shu bilan birga, oʻta yuqori korrelyatsiyalar ehtimoliy multikollinearlik muammosi borligidan darak berishi mumkin, bu esa regressiya modelini tuzishda ehtiyotkorlikni talab qiladi.



9-rasm. Koʻrsatkichlar orasidagi bogʻliqlik grafiqi³⁵

³⁴ Muallif tomonidan tayyorlangan.

³⁵ Muallif tomonidan tayyorlangan.

Ushbu grafik juftliklar jadvali ko‘rinishida taqdim etilgan bo‘lib, O‘zbekiston sug‘urta bozorining to‘rtta asosiy ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi vizual munosabatlarni aks ettiradi. Grafikda har bir o‘zgaruvchi boshqa o‘zgaruvchilarga nisbatan qanday tarqalganini ko‘rish mumkin.

Eng yuqori chap burchakdan pastga diagonal bo‘ylab ketayotgan elementlar o‘zgaruvchilarning o‘zaro bog‘liqliklarini ko‘rsatadi. Diagonal ostidagi kataklarda esa har bir o‘zgaruvchi boshqa uchta o‘zgaruvchiga nisbatan qanday o‘zgarayotgani grafik shaklida ifodalangan.

Grafikdan ko‘rinishicha, sug‘urta mukofotlari va sug‘urta to‘lovlari o‘rtasida nisbatan ijobiy yo‘nalgan bog‘liqlik mavjud. Ya’ni, mukofotlar ortgani sari to‘lovlar hajmi ham oshmoqda. Bu holat sug‘urta kompaniyalarining faoliyati hajmi va to‘lov majburiyatlari orasidagi muvofiqlikni bildiradi. Sug‘urta qoplamalari bilan to‘lovlar o‘rtasidagi nuqtalar biroz tarqoq holatda joylashgan. Bu esa kuchli korrelyatsiya yo‘qligini, ammo muayyan darajada kam o‘zgaruvchan musbat bog‘liqlik bo‘lishi mumkinligini bildiradi. Bu bog‘liqlikning zaifligi ehtimol sug‘urta turining yoki qoplama va haqiqiy to‘lovlar o‘rtasidagi tafovutlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Sug‘urtalovchilarning investitsiyalari hajmi va to‘lovlar o‘rtasidagi munosabat ham shunchalik kuchli emas. Grafikda nuqtalar keng tarqalgan va aniqlik past. Bu esa investitsiya faoliyati ko‘proq kompaniya strategiyasiga emas, balki tashqi omillarga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Bu juftlikda sezilarli darajada mantiqiy ijobiy bog‘liqlik ko‘rinadi. Ya’ni, sug‘urta kompaniyalari ko‘proq mukofot yig‘gan sari ular investitsiyalarga ko‘proq mablag‘ yo‘naltirishgan.

10-jadval

Ko‘rsatkichlarning regression tahlili³⁶

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	5
Model	2604591.57	3	868197.189	F(3, 1)	>	99999.00
Residual	.000022662	1	.000022662	Prob > F	=	0.0000
				R-squared	=	1.0000
				Adj R-squared	=	1.0000
Total	2604591.57	4	651147.892	Root MSE	=	.00476

O‘zRbozoridasug‘urtato‘lov	Coefficient	Std. err.	t	P> t	[95% conf. interval]	
Sugurtamukofotlarimlrdsom	-.0002797	6.41e-06	-43.64	0.015	-.0003612	-.0001983
Sugurtaqoplamalarimlrdsom	1.000133	7.50e-06	1.3e+05	0.000	1.000038	1.000228
OZRbozoridasugurtalovchilar	.0004205	9.62e-06	43.69	0.015	.0002982	.0005428
_cons	-.5995998	.0195377	-30.69	0.021	-.8478495	-.35135

Yuqoridagi jadvalda O‘zbekiston sug‘urta bozoridagi to‘lovlar hajmining dinamikasiga ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha ekonometrik regressiya modeli natijalari keltirilgan. Modelning asosiy bog‘lanayotgan o‘zgaruvchisi O‘zbekiston sug‘urta bozorida to‘lovlar hajmining dinamikasi bo‘lib, model sifatini $R\text{-squared}=1.0000$ orqali ko‘rishimiz mumkin. Bu model barcha dispersiyani 100 % izohlayotganini bildiradi. Bu odatda kam kuzatuvlar sonida yoki juda kuchli multikollinearlik holatida yuzaga keladi. F-statistika va $\text{Prob} > F = 0.0000$. Bu model

³⁶ Muallif tomonidan tayyorlangan.

umuman olganda statistik jihatdan muhim, ya'ni barcha X omillar birgalikda Y o'zgaruvchiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Ko'rsatkichlar tahliliga o'tadigan bo'lsak, "Sug'urta mukofotlari (mlrd so'm)" Koeffitsiyent: -0.0002797 . Bu salbiy qiymat modelga ko'ra mukofotlar oshganda, to'lovlar biroz kamayishini bildiradi. Biroq bu intuitiv jihatdan mantiqdan yiroq ko'rinadi. Ehtimol, boshqa o'zgaruvchilar bilan korrelyatsiya mavjud. P-qiymat = $0.015 < 0.05$ darajada statistik ahamiyatli. "Sug'urta qoplamalari (mlrd so'm)" Koeffitsiyent: 1.000133 . Bu juda kuchli va to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni bildiradi. Ya'ni, 1 mlrd so'mlik qoplama oshganda, o'rtacha to'lovlar ham 1 mlrd so'mga oshadi. P-qiymat = 0.000 juda ahamiyatli hisoblanadi. Bu sug'urta to'lovlarining eng muhim omili ekanini ko'rsatadi. "Sug'urtalovchilar investitsiyalari hajmi" Koeffitsiyent: 0.0004205 . Ijobiy, lekin ta'siri kichik, ya'ni 1 mlrd so'mga ortgan investitsiya, to'lov hajmini 0.42 mln so'mga oshiradi. P-qiymat = 0.015 darajada statistik ahamiyatga ega. Intercept ($_cons$) -0.5996 ga teng. Boshqa omillar 0 bo'lsa, to'lovlar manfiy chiqadi bu real iqtisodiy talqinga ega emas, shunchaki modelning intercept qiymatidir.

Regressiya tahlili shuni ko'rsatadiki, sug'urta qoplamalari to'lovlar hajmiga eng kuchli ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. Investitsiyalar ham muhim, biroq kamroq ta'sir ko'rsatadi. Kutilmagan jihat sug'urta mukofotlari salbiy koeffitsiyentga ega, bu esa ehtimol modeldagi kollinearlik yoki ma'lumotlar sonining kamligi bilan izohlanadi. Bu natijalar asosida sug'urta kompaniyalari qoplama siyosatini ehtiyotkorlik bilan boshqarishi, investitsion faoliyatni diversifikatsiyalashi hamda mukofot va to'lovlar o'rtasidagi balansni puxta nazorat qilishi lozim.

Yangi O'zbekistonda sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini yanada samarali tashkil etish uchun tizimli yondashuv, iqtisodiy islohotlarga muvofiq strategiyalar va zamonaviy boshqaruv tamoyillari asosida harakat qilish lozim. Bu esa nafaqat sug'urta sohasining rivojlanishiga, balki butun mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati ularning moliyaviy barqarorligini, sug'urta zaxiralarini shakllantirish va to'lovlarni amalga oshirish qobiliyatini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Samarali investitsion faoliyat kompaniyaning daromadlarini oshirish, risklarni kamaytirish va bozor raqobatbardoshligini mustahkamlash imkonini beradi. Sug'urta sohasida investitsiya portfelining diversifikatsiyasi va optimal taqsimlanishi muhim ahamiyatga ega. Bu risklarni kamaytirish va turli bozor sharoitlarida daromadlilikni barqaror ushlab turishga xizmat qiladi. "O'zbekinvest" kompaniyasining so'nggi yillardagi o'sish ko'rsatkichlari va investitsiya hajmining sezilarli o'sishi uning samarali investitsion siyosat yuritayotganligini isbotlaydi.

2. Sug'urta kompaniyalarining investitsion salohiyati ularning moliyaviy barqarorligi, o'sish sur'ati va bozordagi raqobatbardoshligini aniqlovchi muhim

ko'rsatkichlardan biridir. Ushbu salohiyatga ta'sir etuvchi omillar bir nechta asosiy guruhlarga bo'linadi: Sug'urta kompaniyalarining investitsiya uchun ajratadigan mablag'lari asosan sug'urta zaxiralaridan iborat. Zaxiralarning katta va barqaror bo'lishi investitsion salohiyatni oshiradi, chunki bu kompaniyaga uzoq muddatli va yuqori daromadli investitsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi. Makroiqtisodiy sharoitlar (inflyatsiya, foiz stavkalari, iqtisodiy o'sish sur'ati), moliyaviy bozorlarning rivojlanishi va barqarorligi sug'urta kompaniyalarining investitsion imkoniyatlariga bevosita ta'sir qiladi.

3. AQShda sug'urta kompaniyalari investitsion portfelini keng diversifikatsiya qilish, zamonaviy moliyaviy vositalardan foydalanish va ilg'or analitik metodlar orqali samaradorlikni baholashga katta e'tibor qaratiladi. Bu yondashuv kompaniyalarga risklarni optimallashtirish va uzoq muddatli barqaror daromad olish imkonini beradi. Xitoyda esa davlat tomonidan qo'yilgan qoidalarga muvofiq, sug'urta kompaniyalari investitsiya portfellarini boshqarishda konservativroq yondashuvni qo'llaydi. Shu bilan birga, tez rivojlanayotgan bozor sharoitida innovatsion investitsiya instrumentlari va yangi bozor segmentlariga kirish strategiyalari qo'llaniladi. Xitoy tajribasida investitsion faoliyat samaradorligi ko'pincha davlat regulatsiyasi va iqtisodiy o'sish sur'atlariga bog'liq.

4. "O'zbekinvest" sug'urta kompaniyasi 2017-yildan 2024-yilgacha sug'urta hajmi va xizmat ko'rsatish sohasida juda katta o'sishga erishdi. Korporativ mijozlar, jismoniy shaxslar va kichik biznes segmentlarida yuqori o'sish sur'ati kuzatilmoqda. Ayniqsa, investitsion loyihalarni sug'urta qilish va xalqaro bozorlar orqali eksport qilish sohasida kompaniya ajoyib natijalarga erishgan. Sug'urta tovonlari o'sishiga qaramay, zarar koeffitsiyentining pasayishi sug'urta faoliyatining samaradorligini ko'rsatadi. Kompaniya o'zining ichki boshqaruvi va risklarni nazorat qilish tizimi orqali sug'urta biznesining rentabelligini yaxshilashga muvaffaq bo'lgan.

5. Sug'urta tashkilotlarining investitsion faoliyati risklarini kamaytirish va daromadlari barqarorligini oshirish maqsadida investitsion portfelni optimal taqsimlash va diversifikatsiya qilish taklif etilgan; sug'urta (qayta sug'urta) tashkilotlarining investitsiya instrumentlarini ko'paytirish orqali ipoteka, lizing, mikromoliyalash va qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsion imkoniyatlarni kengaytirish asoslangan; umumiy va hayot sug'urtasi sohalarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda sug'urta zaxiralarini shakllantirish va joylashtirish tartibini optimallashtirish taklif etilgan; sug'urta tashkilotlarining investitsion faoliyati risklarini baholash va boshqa omillarning ta'sirini aniqlash asosida investitsiya portfeli ko'rsatkichlarining 2030-yilgacha prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

6. Yangi O'zbekistonda sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati samaradorligini oshirish uchun integratsiyalashgan yondashuv zarur bo'lib, unda risklarni diversifikatsiya qilish, yangi bozor va instrumentlarga kirish, zaxiralarni optimallashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda regulatsion muhitini rivojlantirish muhim rol o'ynaydi. Ushbu yo'llar sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlab, ularning iqtisodiyotdagi o'rnini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

7. Bugungi kunda sug'urta kompaniyalari minimal ustav kapitaliga qo'yilgan talab miqdori boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orqali taqqoslanganda yuqori hisoblanadi. Ma'lumki, sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda barcha turdagi moliyaviy resurslarning holati asosiy omillardan biri sanaladi. Chunki kompaniya tomonidan qo'shimcha xizmatlarni amalga oshirish, moliyaviy va investitsion imkoniyatlarni oshirish bevosita ushbu turdagi resursga bog'liq hisoblanadi. Shuning uchun sug'urta kompaniyalari tomonidan minimal talabga bo'lgan miqdorni xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich kamaytirish kompaniyalarning istiqboldagi qo'shimcha har tomonlama rivojlantirish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

8. Hozirgi kunda moliyaviy risklar sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyati va moliyani boshqarishning markaziy masalalaridan biriga aylandi va shiddat bilan rivojlanib borayotgan tadqiqot sohasi hisoblanadi. Korporativ tuzulmalarda moliyaviy munosabatlar tobora murakkablashib borayotgan bir vaqda ularda vujudga keladigan moliyaviy risklarni baholash va boshqarish jarayoni ham jadal rivojlanmoqda. Korporativ moliya boshqaruvining maqsadlari – korxona foydasini maksimallashtirish, ta'sischilarni iqtisodiy farovonligini ta'minlash va korxona bozor qiymatini oshirish hisoblanadi.

9. Sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati samaradorligini oshirish uchun diversifikatsiya, innovatsion investitsiya instrumentlarini kengaytirish va sug'urta zaxiralarini optimal boshqarish muhimdir. Xalqaro bozorlar bilan integratsiyani rivojlantirish ham kompaniyaning barqarorligini mustahkamlaydi. Muntazam monitoring va tahlil orqali investitsiya strategiyalarini doimiy yangilab borish esa risklarni kamaytirish va daromadlarni oshirishga xizmat qiladi. Shu tarzda, kompleks yondashuv asosida investitsion faoliyat samaradorligini oshirish sug'urta kompaniyalarining uzoq muddatli barqaror o'sishiga va raqobatbardoshligining oshishiga olib keladi.

10. Sug'urta mukofotlari (mlrd so'm)" Koeffitsiyent: -0.0002797 . Bu salbiy qiymat modelga ko'ra mukofotlar oshganda, to'lovlar biroz kamayishini bildiradi. Biroq bu intuitiv jihatdan mantiqdan yiroq ko'rinadi. Ehtimol, boshqa o'zgaruvchilar bilan korrelyatsiya mavjud. $P\text{-qiymat} = 0.015 < 0.05$ darajada statistik ahamiyatli. "Sug'urta qoplamalari (mlrd so'm)" Koeffitsiyent: 1.000133 . Bu juda kuchli va to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni bildiradi, ya'ni, 1 mlrd so'mlik qoplama oshganda, o'rtacha to'lovlar ham 1 mlrd so'mga oshadi. $P\text{-qiymat} = 0.000$ juda ahamiyatli hisoblanadi. Bu sug'urta to'lovlarining eng muhim omili ekanini ko'rsatadi. "Sug'urtalovchilar investitsiyalari hajmi" Koeffitsiyent: 0.0004205 . Ijobiy, lekin ta'siri kichik, ya'ni 1 mlrd so'mga ortgan investitsiya, to'lov hajmini 0.42 mln so'mga oshiradi. $P\text{-qiymat} = 0.015$ darajada statistik ahamiyatga ega.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № DSc.03/30.12.2019.I.17.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ОСТОНОВ МУХРИДДИН БАХРИДДИН УГЛИ

**ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ**

08.00.07 – “Финансы, денежное обращение и кредит”

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по экономическим наукам

город Ташкент – 2025 год

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по экономическим наукам зарегистрирована под номером B2025.1.PhD/Iqt1294 в Высшей аттестационной комиссии.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Научного совета (www.tsue.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz)

Научный руководитель:	Зонров Лазиз Субханович кандидат экономических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Жумаев Нодир Хосиятович доктор экономических наук, профессор Элмирзаев Самариддин Эшкuvatович доктор экономических наук, профессор
Ведущая организация:	Ташкентский филиал Российского экономического университета имени Г.В.Плеханова

Защита диссертации состоится в 14⁰⁰ часов «21» 11 2025 года на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней № DSc.03/30.12.2019.1.17.01 при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100000, город Ташкент, проспект Амира Темура, 60А. Тел.: (99871) 234-53-34; факс: (99871) 234-46-26, e-mail: ilmiykengash@tfi.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирована за номером 1807). Адрес: 100000, город Ташкент, проспект Амира Темура, 60А. Тел.: (99871) 234-53-34, факс: (99871) 234-46-26, e-mail: admin@tsue.uz.

Автореферат диссертации разослан «24» 10 2025 года.
(протокол реестра № 79 от 24 « » 10 2025 года).



Т.З.Тешабаев
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

Ж.Х.Атаиязов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

И.Н.Кузиев
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Роль страховых компаний в обеспечении стабильности и устойчивого развития мировой экономики существенно возрастает. Страховщики вносят существенный вклад в рост мировой экономики инвестируя свои активы, составляющие десятки триллионов долларов, в различные секторы мировой экономики. В частности, “в 2024 году инвестиционный портфель европейских страховщиков составил 15 624,3 млрд.евро, из которых 47,2 процента было инвестировано в государственные и корпоративные облигации”³⁷. Кроме того, в 2024 году доход от инвестиционной деятельности американских компаний по страхованию жизни и здоровья составил 215 млрд.долларов США³⁸. Это, в свою очередь, свидетельствует об актуальности дальнейшего повышения эффективности инвестиционной деятельности страховых компаний и усиления их влияния на развитие мировой экономики. Обеспечение финансовой устойчивости страховых компаний требует поиска альтернативных вариантов своевременного исполнения ими своих обязательств перед кредиторами и страхователями, а также пересмотра и совершенствования стратегий обеспечения финансовой устойчивости за счет диверсификации своей инвестиционной деятельности.

В процессе развития мирового страхового рынка большое внимание уделяется научным исследованиям, направленным на повышение эффективности инвестиционной деятельности страховщиков и обеспечение их финансовой устойчивости. В частности, проводятся научные исследования по определению классификационных признаков внешних и внутренних факторов оценки и обеспечения финансовой устойчивости страховых организаций, внедрению современных финансовых инструментов на страховом рынке, диверсификации страховых услуг, разработке механизма мониторинга финансовой устойчивости, изучению причин, негативно влияющих на процесс капитализации страховщиков и повышение их роли на внутреннем рынке инвестиционных ресурсов, организации оценки эффективности и финансовой устойчивости страховых компаний. Однако данные исследования не выявили новых подходов к оценке роли государства в контроле и регулировании инвестиционной деятельности страховых компаний.

Разработаны важные приоритеты по дальнейшему повышению роли страховых компаний в обеспечении экономического развития Узбекистана. Большое внимание уделяется коренному реформированию страхового рынка, внедрению международных стандартов и норм, применению эффективных механизмов регулирования и пруденциального надзора, расширению сферы

³⁷European Insurance in Figures. 2024 data. https://www.eiopa.europa.eu/tools-and-data/eurobarometer-2024-consumer-trends-insurance-and-pension-services_en

³⁸ Annual Report on the Insurance Industry (September 2024). Federal Insurance Office, U.S. Department of the Treasury Completed pursuant to Title V of the Dodd-Frank Wall Street Reform and Consumer Protection Act. September 2024.

предоставляемых страховых услуг за счет внедрения новых инновационных страховых продуктов, широкому использованию цифровых технологий в отрасли и развитию электронных страховых услуг. Однако отсутствие достаточной изученности вопросов формирования и поддержания на высоком уровне позитивного имиджа национального страхового рынка, повышения его инвестиционной привлекательности, в том числе интеграции национального страхового рынка с международными и зарубежными страховыми рынками, совершенствования инвестиционной деятельности страховых организаций, требует проведения масштабных исследований в этом направлении.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года №УП-158 “О Стратегии “Узбекистан-2023””, от 28 января 2022 года №УП-60 “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, от 1 августа 2018 года №УП-5495 “О мерах по кардинальному улучшению инвестиционной среды в Республике Узбекистан”, Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 1 марта 2024 года №ПП-108 “О комплексных мерах по дальнейшему развитию рынка страховых услуг”, от 2 августа 2019 года №ПП-4412 “О мерах по реформированию и обеспечению ускоренного развития страхового рынка Республики Узбекистан”, от 23 октября 2021 года №ПП-5265 “О дополнительных мерах по цифровизации страхового рынка и развитию сферы страхования жизни”, а также других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

